

**BILINGUAL MUHITDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING
INTELLEKTUAL SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO
SIFATIDA**

*G'ijduvon pedagogika kolleji o'qituvchisi
Valijonova Zarina Xurshid qizi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada bilingual muhitda maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyalanuvchilarining intellektual rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan g'oyalar va metodlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Tayanch tushunchalar: Bilingual muhit, tarbiya, axloqiy, intellektual, intellekt, rivojlanish, didaktik o'yin, kompetensiya, matematik tasavvurlarni shakllantirish.

Bilingual muhitda maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyalanuvchilarining intellektual rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan g'oyalar va tushunchalarning asosi qo'yiladi. Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalik - odamning intellektual rivojlanishidagi eng asosiy vaqt hisoblanadi. Bilingual muhitda maktabgacha yoshidagi bolalarning intellektual rivojlanish imkoniyatlari juda yuqori ekanligi aniqlandi: tarbiyalanuvchilar nafaqat ob'ektlar va hodisalarning tashqi, vizual xususiyatlarini, balki ularning ichki, muhim aloqalari va munosabatlarini ham muvaffaqiyatli o'rganishlari mumkin. Maktabgach ta'lif yoshidagi bolalik davrida mavhumlashtirish, umumlashtirish va xulosa chiqarishning dastlabki shakllari uchun qobiliyatlar shakllanadi.

Ko'pgina olimlarning asarlarida maktabgacha yoshidagi bolalik intellektual rivojlanish va ta'lif uchun maqbul davr sifatida qayd etilgan. Bu maktabgacha ta'limning birinchi tizimlarini yaratgan o'qituvchilar - F. Frobel, M. Montessorilarning qarashlaridir. Bolaning intellektual rivojlanishi muammosi psixologiya va pedagogikada uzoq vaqt davomida samarali ishlab chiqilgan. Maktabgacha ta'lif yoshda fikrlash jarayonlarining kognitiv salohiyati shakllanadi, o'yin, o'quv, ijodiy faoliyat va aloqa motivatsiyasi rivojlanadi. Psixologlar P. Y. Halperin, A. V. Zaporozesning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshidagi bolalarda qo'llaniladigan bilim shakllari kelajakda bolaning intellektual rivojlanishi uchun doimiy ahamiyatga ega. A.V.Zaporozesning fikricha, agar bolaning tegishli intellektual va hissiy fazilatlari maktabgacha yoshidagi bolalik davrida to'g'ri rivojlanmasa, keyinchalik bu jihatdan shaxsni shakllantirishdagi yuzaga keladigan kamchiliklarni bartaraf etish qiyin yoki umuman imkonsiz bo'lib chiqadi

Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarda va boshlang'ich maktab yoshida elementar matematik tasavvurlarini taraqqiy ettirish muammolari ustida ilmiy ishlar olib borgan pedagoglardan Y.I. Tixeyeva bolalarni aqliy tomondan tarbiyalashda boshlang'ich matematik tushunchalarga katta ahamiyat beradi.

Y.I. Tixeyeva: "Bola bilimni hayotdan olishi kerak, hayotning o'zi har qadamda bolaning oldiga amaliy vazifalarni qo'yadi, ya'ni o'lchash, sanash, ayirishlar. Har bir normal

bola kattalarning yordamisiz 10 gacha sanashni bilib oladi” , deydi. U, ayniqsa, birinchi o‘nlik sonlarni bilib olishga katta ahamiyat beradi. U bolani sanashga o‘rgatishda majbur qilmaslik kerak, faqat unga ko‘rgazmali, didaktik material berish kerak, deydi. Maxsus material bilan birgalikda tabiiy materiallar, tashlandiq materiallar berish kerak, deydi. Y.I. Tixeyeva birinchi bo‘lib matematik tasavvurlarga o‘rgatish dastursini tuzishga urinib ko‘radi. Son-sanoqqa o‘rgatishda o‘n ichida sanash, bir va ko‘p tushunchasidan boshlab raqamlar bilan tanishtirish, soat bilan tanishtirish, masalalar yechish, kasrlar bilan tanishtirish, kattalik va shakllar bilan tanishtirishni ko‘zda tutadi. Tixeyeva sanamasdan sonlarni bir ko‘rishda bilib olish metodini tavsija etadi, ya’ni monografik metod asosida.

Y.I. Tixeyeva “Bog‘chada son-sanoq” kitobini yozadi. Uning fikrlarilari bir-biriga qarama-qarshi. Nazariyada bolalarning taraqqiyotiga aralashmaslik kerak desa, amalda esa tarbiyachining o‘yin va mashqlarida rahbarlik rollarini qo‘llab-quvvatlaydi. Son haqidagi tushuncha tug‘ma deb, bolalarni maxsus ta’limiy faoliyatlarda sanashga o‘rgatishga yo‘l qo‘ymaslik kerak, deydi. Shuning uchun son-sanoq metodikasini ishlab chiqmaydi, balki son-sanoqqa o‘rgatish dastursini belgilab chiqadi. Tixeyeva didaktik va hayotiy materiallarning rolini ko‘rsatdi, uni o‘rgatishda ketma-ketlik, sistemalilik, takroriylik tamoyiliga amal qilishni ko‘rsatdi. Y.I. Tixeyevaning kamchiligi u o‘rgatishda asosiy metod faqat didaktik o‘yin metodi deb hisoblaydi. Lekin Y.I. Tixeevaning didaktik o‘yinlari va didaktik materiallaridan foydalanish mumkin.

Didaktik o‘yin esa asosiy metodlardan faqat bittasidir. Lekin u birdan bir metod bo‘la olmaydi. U boshqa metodlar bilan birgalikda qo‘llaniladi. Shunday qilib, F.N. Blixer bog‘cha ishiga katta hissa qo‘shdi. Lekin hayot bir joyda turmaydi, ilmiy ishlarning natijalari bolalar bog‘chasida elementar matematika tasavvurlarini ishini ilmiy asosda olib borish imkonini berdi. Hozirgi vaqtida Blixerning didaktik o‘yinlaridan qisman foydalanish mumkin.

Bilingual muhitda maktabgacha yoshdagagi bolalarning intellektual rivojlanishi - bu ongi rivojlantirish uchun o‘sayotgan odamga tizimli va maqsadli pedagogik ta’sirdir. Bu insoniyat tomonidan to‘plangan bilim, ko‘nikma va malakalarda, me’yorlar, qoidalar, baholar va boshqalarda ifodalangan yosh avlod tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirishning tizimli jarayoni sifatida davom etadi.

Ushbu ta’sir kattalar tomonidan amalga oshiriladi va turli xil vositalar, usullar tizimini, bolalarning intellektual rivojlanishini ta’minlaydigan sharoitlarni yaratishni o‘z ichiga oladi.

Intellekt nima?

O‘zbek tilining izohli lug‘atida intellekt so‘zi quyidagicha izohlangan. Intellekt: (lotincha intellectus - aql, idrok, tasavvur)

1. Kishining fikrlesh qobiliyati, aqliy rivojlanganlik darajasi.
2. Shunday aql-idrok, zehn-farosat egasi.

Intellektual rivojlanishning mohiyati deganda bilim zaxirasi va kognitiv jarayonlarning rivojlanishini nazarda tutgan holda aqliy qobiliyatlarning rivojlanish

darajasi tushuniladi, ya’ni asosiy qonuniyatlarni tushunishda ma’lum bir fikr, aniq bilimlar zaxirasi bo’lishi kerak.

Bilingual muhitda maktabgacha yoshdagagi bolalarni intellektual tarbiyalash jarayonida shakllanadigan ongning fazilatlaridan biri bu tanqidiylikdir. Aqlning tanqidiyligi kognitiv faoliyat natijalarini (o’z va boshqa odamlar), muammolarni hal qilishning tanlangan usullarini, xulosalar, hukmlarni baholash qobiliyatini anglatadi.

Intellektual rivojlanish ongning kengligida - hodisani turli xil aloqalar va munosabatlarda, umumlashtirish qobiliyatida ko’rib chiqish qobiliyatida namoyon bo’ladi.

Shunday qilib, intellektual rivojlanish-bu o’sib borayotgan odamning barcha ko’rinishlarida: bilim, kognitiv jarayonlar, qobiliyatlar va hokazolarda kognitiv faoliyatining jarayoni va darajasida namoyon bo’ladi, bu bolaga hayot va atrof-muhit sharoitlarining ta’siri natijasida amalga oshiriladi. Biroq, intellektual rivojlanishda yetakchi, belgilovchi rol - tizimli intellektual ta’limga tegishli. Bu maqsadli pedagogik ta’sir sifatida bilimlarni o’zlashtirish jarayonini tashkil etish va boshqarish va intellektual harakatlar va bilim qobiliyatları tizimini shakllantirish jarayonini boshqarishni o’z ichiga oladi.

Bolaning intellektual rivojlanishi bolaning dunyoqarashi, o’ziga xos bilimlar zaxirasini o’z ichiga oladi. Bola muntazam va ajratilgan idrokni, o’rganilayotgan materialga nazariy munosabat elementlarini, fikrlashning umumlashtirilgan shakllarini va asosiy mantiqiy operatsiyalarni, semantik yodlashni o’zlashtirishi kerak. Biroq, asosan, bolaning tafakkuri majoziy bo’lib qoladi, ob’ektlar, ularning o’rinnbosarlari bilan haqiqiy harakatlarga asoslanadi. Intellektual rivojlanish, shuningdek, bolaning ta’lim faoliyati sohasidagi dastlabki ko’nikmalarini shakllantirishni, xususan, o’quv vazifasini ajratib ko’rsatish va uni faoliyatning mustaqil maqsadiga aylantirish qobiliyatini o’z ichiga oladi. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, intellektual rivojlanish quyidagilarni o’z ichiga oladi:

- differensial idrok;
- analitik fikrlash (hodisalar orasidagi asosiy belgilar va aloqalarni tushunish qobiliyati, namunani ko’paytirish qobiliyati);
 - haqiqatga oqilona yondashuv (fantaziya rolini zaiflashtirish);
 - mantiqiy yodlash;
 - bilimga qiziqish, ularni qo’shimcha harakatlar orqali olish jarayoni;
 - og’zaki nutqni qulq bilan o’zlashtirish va belgilarni tushunish va qo’llash qobiliyati;
 - qo’lning nozik harakatlarini va motorikalarni muvofiqlashtirishni rivojlantirish.

U yoki bu odamning aql-idrok darajasi mutlaqo tug’ma emas, hatto undan ham ko’proq genetik meros qilib olingan mulkdir - bu aniq qobiliyatlar tizimidir. Qobiliyatlar turli xil faoliyatni amalga oshirish jarayonida, shaxsning boshqa odamlar bilan o’zaro munosabatlarining murakkab tizimida shakllanadi. Faqat moyilliklar tug’ma. Ma’lumki, qobiliyatlar nafaqat faoliyatda shakllanadi - ular unda namoyon bo’ladi. Bolaning aql-idrokini uning kundalik intellektual faoliyati samaradorligini yoki intellektual vazifalar (testlar) muvaffaqiyatini kuzatish asosida baholashning boshqa usuli yo‘q.

Aqlning funksiyasini tushunishda uchta tur mavjud:

- o'rganish qobiliyati;
- belgilar bilan ishslash;
- atrofimizdagi voqelik qonuniyatlarini faol egallash qobiliyati.

Aqliy tarbiya atrofdagi dunyo, intellektual qobiliyat va ko'nikmalar haqidagi g'oyalar tizimini shakllantiradi, qiziqish va qobiliyatlarni rivojlantiradi.

- Bolaning kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:
- jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;
 - ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
 - nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;
 - bilish jarayonining rivojlanishi;
 - ijodiy rivojlanish.

Elementar matematik malakalar - Har qaysi yosh guruhi dasturi bo'yicha o'rnatiladigan miqdor va sanoq, kattalik, geometrik shakllar, fazoda mo'ljal olish, vaqt bo'yicha mo'ljal olish.

Ushbu haqiqatlarni anglash, bolaning ijodiy imkoniyatlariga ishonish, unga g'amxo'rlik qilish, uning rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratish va pedagogik mahoratini tinimsiz oshirish - bularning barchasi tarbiyachilarga bolalarning intellektual rivojlanishining yuqori darajasini ta'minlashga yordam beradi

Maktabgacha yoshdan bolalarda matematik bilimlarning yetarli bo'lishiga katta ahamiyat berish muhimdir. Chunki, inson hayoti davomida matematik hisob-kitoblarga tez-tez duch keladi, ya'ni matematik bilimlar har qadamda kerak bo'ladi. Agar biz maktabgacha yoshdan bolalarni matematika olamiga turli qiziqarli usullardan foydalangan holda olib kira olsak, matematik bilimlar bilan yetarli darajada qurollantirsak, ular maktabda a'lo baholarga o'qib, yuqori natijalarga erishadilar, hayoti davomida xalqimiz uchun foydali kasbni tanlash va chuqur egallashda qiyalmaydilar. Chunki qaysi kasbni olmaylik uni mahorat bilan bajarishga albatta matematik bilimlar kerak bo'ladi. Shu sababli turli ta'limiy usullar, qiziqarli she'rlar, topishmoqlar orqali bolalarning yoshiga mos matematik bilimlar berib borishga katta ahamiyat berish muhimdir.

Ilk matematik tushunchalarning qanchalik aniq va mukammal bo'lishi, bolalarda mantiqiy fikrlash, intellektual salohiyati xulosa chiqarish jarayonlarining kuchli bo'lishini ta'minlaydi. Ya'ni matematika bolalarni mantiqiy fikrlashga - to'g'ri fikrlash, to'g'ri fikrlardan to'g'ri xulosalar chiqarishga o'rgatadi, shu bilan birga nutqning takomillashuviga katta yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, hozirgi kunda eng dolzarb vazifalardan biri bu tarbiyalanuvchilarni bilingual muhitda maqsadli va tizimli intellektual salohiyatini o'stirish zaruriyati ahamiyat kasb etmoqda. Shu ma'noda, yangi pedagogik texnologiyalarni yaratish va joriy etishga ehtiyoj tug'iladi. Bilingual muhitda maktabgacha yoshdag'i bolani intellektual salohiyatini rivojlantirishda har bir bolaning ichki dunyosini o'rganish, shaxs sifatida hurmat qilish asosiy o'rinni egallaydi. Bugungi kundagi maktabgacha ta'lim tashkiloti oldida tarbiyalanuvchilarga nafaqat ta'lim berish, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, hamda ularning sog'lom rivojlantirish vazifalari turibdi. Maktabgacha

ta'lrim tashkilotidagi elementar matematika faoliyati davomida maktabgacha yoshdag'i bolalarning intellektual salohiyati ortib boradi. Birgalikda bu turdag'i murakkab axborotlarning barchasi majmuani tashkil etadi. Maktabgacha ta'lrim tashkilotidagi tarbiyalanuvchilarni axborot kompetentligini rivojlantirish asosida nafaqat yangi ilm va ko'nikmalar, balki ilgari mavjud bo'limgan yangi psixologik xususiyatlari, yangi imkoniyatlar va zaruriyatlar paydo bo'ladi. Tarbiyalanuvchilarda matematik tasavvurlarni shakllantirish amaliy faoliyatida shaxsga yo'naltirilgan o'zaro ta'sirning o'rganilgan texnologiyasi doirasida pedagogikaning turli loyixalarini amalga oshirish, tarbiyalanuvchilar bilan birgalikda qurish-yasashga doir ta'limiyl o'yinlar orqali elementar matematik malakalarini shakllantirish, matematik savodini rivojlantirishni amalga oshirishda yangi kasbiy motivlar, qiziqish va ehtiyojlarning paydo bo'lishi shaklida kuchayishiga olib keladi. Maktabgacha ta'lrim yoshidagi bilingual bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish texnologiyasi tarbiyachining ish faoliyatida namoyon bo'lishi, uni amalga oshiradigan vaqtda pedagogik va texnologik harakatlar orqali amaliy faoliyat jarayonida intellektual salohiyati rivojlantiriladi. Tarbiyalanuvchilarni elementar matematika tasavvurlarini shakllantirishga o'rgatishda intellektual rivojlanishi, uning bilim va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning kuchli asosini ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lrim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida elementar matematik tasavvurlarni rivojlanishning samaradorligi, mакtabda matematika ta'lrim savodi muvaffaqiyatining asosiy omilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston Respublikasi "Ta'lrim to'g'risida"gi qonuni. palatasi tomonidan 2020 yil 19 mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020 yil 7 avgustda ma'qullangan. O'RQ-637. 23.09.2021. <https://lex.uz/ru/docs>

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 27 iyuldag'i PQ-3151-son qarori.

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. <http://lex.uz//uz/docs/-5841063>

4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son farmoni.

5.Abdurahimova D.A. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni axloqiy ruhda tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish. Ped. Fan. Nomzodi ...diss. – Qarshi, 2012. -150 b.

6. Amirova. G.A., Sulaymonov A.P., Djurayeva B .R. Maktabgacha ta'lrim tashkilotilarda applikatsiya mashg'ulotlari. T., 2014.

7.Асланова Н. Мактабгача таълим ёшидаги болаларда математик тасаввурларни ривожлантириш усуллари. // ж. Педагагик махорат 2019. №2.